

ONA TILI TA'LIMIDA DISKURSIV YONDASHUVNING BUGUNGI KUNDAGI
AHAMIYATI

Boymaxmatova Dilnoza Do'smat qizi

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1518677>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda diskursiv yondashuv asosida 5-sinf o'quvchilari uchun topshiriqlar asosida ularning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sinf, qobiliyat, dinamik, fonetik birliklar, tovush, bo'g'in, urg'u, yondashuv, yo'rinqoma.

Abstract. This article provides recommendations on how to develop the speaking skills of 5th-grade students through tasks based on the discursive approach in today's educational context.

Key words: class, ability, dynamic, phonetic units, sound, syllable, stress, approach, instruction.

Kirish

"Sinf bu har xil qobiliyat, iste'dod va xarakterga ega bo'lgan dinamik muhit hisoblanadi. Shuning uchun samarali o'qituvchi bo'lish, o'quvchilarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitishning ijodiy va innovatsion strategiyasini amalga oshirishi kerak bo'ladi"[1;22] Ayniqsa, bugungi tezkor axborot asrida ma'lumotlar sig'imi katta ekanligini inobatga olsak, o'quvchilarni shunchaki darsga va darsliklarga jalb qilish oson emas. Bu kabi muammolarni oldini olish maqsadida Milliy o'quv dasturi asosida yangi avlod Ona tili darsliklarining yozilganligi o'quvchilarga va fan o'qituvchilariga katta yangilik bo'ldi deyish mumkin. Har bir darsda o'qituvchidan yangi interfaol usullardan foydalangan holda dars o'tish orqali o'quvchilarining yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarish hamda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Demak, ona tili ta'limining maqsadi o'quvchilarining ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakkarda to'g'ri va ravon ifodalashlarini rivojlantirishdan iborat. Bu esa nutq o'stirish muammosini o'rtaga tashlaydi? Shu ma'noda nutq o'stirish matabda ona tili o'qitishning bosh maqsadi hisoblanadi.

Professor A. Abduazizov tomonidan "fonetik birliklar (tovush, bo'g'in, urg'u, intonatsiya) bilan fonologik birliklar (fonema, sillabema, aksentema, intonema) o'rtasida ma'lum munosabat o'rnatilishi lozimligi qayd etilgan"[2;13]. Nutq tovushlarini aniq talaffuz qilishi shu nutq jarayonida urg'u va intonatsiyaga rioya qilishi so'zlarni tushunarli eshitilishida muhim funksiyadir. "Leksikani o'rganish deyilganda, ko'proq leksik ko'nikmani hosil qilish tushuniladi. Shunga ko'ra leksik ko'nikmalarni hosil qilish uch bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Kiritish, yangi so‘z ma’nosini ochish va qayta talaffuz qilish.
2. Nutq vaziyatlarda qo‘llashga mashq qilish va mustahkamlash.
3. O‘zgaruvchan vaziyatli bosqich” [3;43].

O‘quvchilarning leksik ko‘nikmalardan foydalanishi ulardan nutqiy vaziyatlarda o‘rinli qo‘llashi bilan belgilanadi. Suhbat mavzusi uning nutqiy vaziyati bilan bog‘liq.

Bog‘lanishli nutqning to‘g‘ri tuzilganini aniqlash uchun asosiy vazifalardan biri bo‘lib og‘zaki ravishda mashq bajartirish, o‘zi tuzgan gaplarini o‘ziga tahlil qildirish lozim. Bu kabi topshiriqlar ularning to‘g‘ri talaffuzini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu bilan birga maktabda dars o‘tish jarayonida fan o‘qituvchisiga ham bir qator talablar qo‘yiladi. “O‘qituvchining o‘zi ishtiyoqi baland bo‘lishi. Ruhiy horg‘in inson boshqalarda motivatsiya uyg‘otishi qiyin”[4;15]. Bu talablarga dars jarayonida yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil etish ham nazarda tutiladi. Bu bugungi kun o‘quvchilarini darsga jalb qilishda va dars samaradorligini oshirishda ayniqlashtirish muhimdir. Bu kabi jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etishda dastlab fan o‘qituvchisidan to‘g‘ri yondashuvni tanlashni va unga mos usullardan foydalanish ayniqlashtirish muhimdir.

Ona tili ta’limida diskursiv yondashuv asosida 5-sinf o‘quvchilarini uchun ularning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi va o‘quvchilar orasida fikrlarni aniq ifodalash va mantiqiy tahlil qilishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Diskursiv yondashuv o‘quvchilarga fikrlarni erkin va to‘g‘ri bayon qilishga yordam beradi, shu bilan birga ularni yozma va og‘zaki nutqni tahlil qilishda faol ishtiroy etishga undaydi. Quyida bir nechta topshiriqlar misollari keltirilgan:

1. “Men uchun eng yaxshi do‘st” mavzusida argumentli esse yozish

- **Maqsad:** O‘quvchi do‘stlikning ahamiyatini va o‘zining eng yaxshi do‘stini tasvirlab berishi kerak.
- **Yo‘riqnomा:** O‘quvchilarga do‘stlikning ahamiyatini, do‘stlarning qanday sifatlari bo‘lishi kerakligini, eng yaxshi do‘sti haqida qisqacha ma’lumot berishni so‘rang. Esse hajmi 100-150 so‘zdan iborat bo‘lish kerakligi talab qilinsin.
- **Yondashuv:** O‘quvchilarni izohli va mantiqiy fikrashga undash, har bir fikrni misollar bilan isbotlashga o‘rgatish.

2. “O‘quvchilar uchun eng yaxshi fan” haqida fikr bildirish

- **Maqsad:** O‘quvchi o‘zining darsga bo‘lgan munosabatini va eng yaxshi fanni qanday tasavvur qilishini bayon qiladi.
- **Yo‘riqnomा:** O‘quvchilarni o‘z sevimli fanlarini va undagi faoliyatlarini tasvirlab berishga chaqiring. Har bir o‘quvchidan qanday fanlar o‘tkazilishi kerakligini ta’riflashni so‘rang.

- **Yondashuv:** Fikrlarni izchil ravishda tasvirlash, har bir fan faoliyatini aniq tasavvur qilishga o‘rgatish.

3. “Shirinliklarning inson salomatligiga foydali va zararli tomonlari” mavzusida esse

- **Maqsad:** O‘quvchi shirinliklarning foydalari va salbiy tomonlarini tahlil qiladi, har ikki tomonni o‘rtada solishtiradi.
- **Yo‘riqnomा:** O‘quvchilarga shirinliklarning foydali va zararli tomonlarini ikki guruhga ajratib yozishni so‘rashi mumkin. Har bir fikrni misollar bilan izohlashni talab qiling.
- **Yondashuv:** Muammoni tahlil qilish va ikki tomonlama fikrni aniq ifodalashga urg‘u bering.

4. “Tabiatni asrash” haqida ijodiy matn yozish

- **Maqsad:** O‘quvchi tabiatni asrashning ahamiyatini va bunga qanday hissa qo‘sish mumkinligini tushuntiradi.
- **Yo‘riqnomा:** O‘quvchilarga tabiatni asrashning zarurligini va unga qanday hissa qo‘sish mumkinligini tushuntirib berishni so‘rang. O‘quvchilarga tabiatni himoya qilish uchun o‘zlarining fikrlarini va tashabbuslarini kiritish imkoniyatini bering.
- **Yondashuv:** Matnda izchil va yaxshi tuzilgan fikrlar, aniq dalillar va misollarni keltirishni talab qiling.

5. “Kun tartibimni qanday tuzaman?” mavzusida reja tuzish

- **Maqsad:** O‘quvchi kun tartibini qanday tuzishi va qilmoqchi bo‘lgan faoliyatlarini tasvirlaydi.
- **Yo‘riqnomा:** O‘quvchilarga kun tartibini qanday tuzishlari lozimligini va nimalar qilishni rejalahtirishlarini so‘rang. Ularni har bir faoliyatni qisqacha bayon qilishga va maqsadga muvofiq reja tuzishga undang.
- **Yondashuv:** O‘quvchilarga reja tuzishda mantiqiy izchillikni, har bir faoliyatni qaysi tartibda bajarish kerakligini tasvirlashga yordam bering.

Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarga fikrni tahlil qilish, dalillarni keltirish, mantiqiy xulosa chiqarish va muammoni yechish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Diskursiv yondashuvga asoslangan topshiriqlar ular uchun keng imkoniyatlar beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ona tili ta’limida diskursiv yondashuvning o‘rnii va ahamiyati yanada ortmoqda. Diskursiv yondashuv o‘quvchilarga nafaqat lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish, balki tildan samarali foydalanish, fikrni aniq va lo‘nda ifodalash, muloqotda maqsadga erishish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarning tahliliy fikrlash, nutq madaniyati, va tilni tushunish qobiliyatlarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, diskursiv yondashuv o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifodalashiga imkon yaratadi va ularga hayotiy ko‘nikmalarga asoslangan, muloqotlarda zarur bo‘ladigan til o‘rgatishning samarali usulini taqdim etadi. Natijada, diskursiv yondashuv ona tili ta’limini nafaqat ilmiy, balki pragmatik jihatdan ham samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O.U. Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” O‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent–2017, 22-bet.
2. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. -Тошкент.Ўқитувчи.1992.-Б 13
3. Шатилов С.Ф.Методика обучения немецкого языку в средней школе.М.,1986. – 43С
4. Sadiqov U “Kreativ pedagoglar uchun tuzib chiqarilgan eng sara maslahatlar va qo‘shimcha metodlar” to‘plami – Т: 2022–25.В 15